

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZULLOYEVA ZILOLA ZAFAROVNA

**BADIIY MATNDA KINOYANI IDROK ETISH VA TARJIMA
QILISHNING LINGVOKOGNITIV ASOSLARI
(O. Genri hikoyalari materialida asosida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Fayzulloyeva Zilola Zafarovna

Badiy matnda kinoyani idrok etish va tarjima qilishning lingvokognitiv asoslari
(O. Genri hikoyalari materialida) 3

Файзуллоева Зилола Зафаровна

Лингвокогнитивные основы восприятия и перевода иронии
в художественном тексте (на материале рассказов О. Генри) 25

Fayzulloyeva Zilola Zafarovna

Linguocognitive bases of perception and translation of irony
in a literary text (on the material of stories by O. Henry) 50

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 54

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZULLOYEVA ZILOLA ZAFAROVNA

**BADIIY MATNDA KINOYANI IDROK ETISH VA TARJIMA
QILISHNING LINGVOKOGNITIV ASOSLARI
(O. Genri hikoyalari materialida asosida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Fil.3593 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kiselyov Dmitriy Anatolevich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Umurova Go'zal Xatamovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Daniyeva Maysara Djamalovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.D.Qarshibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida til hodisalarini kognitiv yondashuv asosida o‘rganish zamonaviy ilmiy izlanishlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yondashuv tilni yopiq belgilar tizimi sifatida emas, balki inson tafakkuri, idrok jarayoni va dunyo manzarasini yaratishning faol vositasi sifatida talqin etishga imkon beradi. Natijada an‘anaviy strukturaviy tavsiflarning o‘rnini ma‘no shakllanishi hamda uni anglashni ta‘minlovchi mental mexanizmlarni tahlil qilish egalladi. Leksik birliklar va grammatik shakllardan tashqari, troplar hamda badiiy ifoda vositalari, ayniqsa ko‘p qirrali hodisa sifatidagi kinoya kognitiv tahlilning muhim obyekti sifatida shakllandi. Kinoyani kognitiv nuqtai nazardan tadqiq etish inson tafakkurining yashirin qatlamlarini ochish, ya‘ni berilgan matnda yashiringan ma‘no va muallifning baholovchi pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Xususan, kinoya – bu gapning ochiq mazmuni bilan yashirin ma‘nosi o‘rtasidagi nomuvofiqlikka asoslangan badiiy vosita bo‘lib, uning mohiyatini to‘liq anglash kognitiv, pragmatik va tarjimashunoslik mexanizmlarining izchil va kompleks tahlilini talab etadi.

Jahon tilshunoslik ilmida, ayniqsa kognitiv tilshunoslik doirasida, inson ongi va tafakkurining tildagi ifodalanish qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Zamonaviy olimlar til faqat voqelikni qayd etibgina qolmay, balki insonning uni anglash modellarini ham shakllantiradi, deb hisoblaydilar. Shu nuqtai nazardan badiiy matn muallif ongining tasviriy ifodasi sifatida o‘ziga xos kognitiv struktura hisoblanadi. Bu kontekstda kinoya oddiy stilistik vosita emas, balki dunyoqarashni konseptuallashtirish usuli, ya‘ni matnni anglashda maxsus nuqtai nazarni shakllantiradigan vositadir. Shuningdek, kinoyani boshqa til vositalari orqali tarjima qilish ham o‘ta murakkab vazifa bo‘lib, u faqatgina so‘zma-so‘z tarjima emas, balki original asardagi kognitiv va emotsional foni qayta tiklashni talab qiladi. Kinoyaviy ifodani to‘g‘ri anglash va qayta yaratish faqat mental modellar, madaniy kontekst va pragmatik strategiyalar hisobga olingandagina mumkin bo‘ladi. Shu jihatdan ushbu yo‘nalish kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslik uchun ayni vaqtda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

O‘zbekistonda zamonaviy filologik tadqiqotlar jahon ilmiy maydoniga faol integratsiyalashmoqda, ular kognitiv va funksional paradigmalar doirasida rivojlanmoqda. Ayniqsa, til, tafakkur va madaniyat o‘zaro munosabatini o‘rganish, shuningdek, badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Hozirga qadar jahon adabiyotidan ona tilimizga tarjima qilingan aksariyat asarlar bilvosita amalga oshirilgan va bu hol bugungi kunda ham davom etmoqda. Yosh tarjimonlarimiz asliyat tilini yaxshi bilsalar-da, ko‘p hollarda ular badiiy mahorat yetishmayapti”¹. Bu so‘zlar tarjimaning ijodiy tabiati va murakkab ma‘no hodisalarini, xususan, kinoyani yetuk darajada

¹ Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosida o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi halqaro konferensiya ishtirokchilariga nutqi. <https://president.uz/ru/lists/view/1926> [Murojaat sanasi: 15.05.2020].

ifodalashning ilmiy asoslarini chuqur anglash hamda ularni samarali tarzda aks ettirish yo‘llarini izlash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Amerikalik novella yozuvchisi O.Genri ijodi, jumladan, ijodiy uslubining o‘ziga xosligi lingvistik va adabiyotshunoslik tahlillari uchun dolzarb tadqiqot obyektidir. Lisoniy hodisalarning kognitiv asoslarini, xususan, stilistik usullari va badiiy adabiyot namunalarning kognitiv asoslarini o‘rganish tilshunoslik fanining jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishi hisoblanadi. Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, M.R. Galieva, N.M. Djusupov, Ya.Yu. Arustamyan² kabi olimlarning ishlari ushbu yo‘nalish shakllanishi va rivojiga alohida hissa qo‘shdi. I.S. Kaxarova, G.Yu. Rofiyeva, L.U. Muzafarova, D.F. Pulatova³ singari tadqiqotchilarning dissertatsiya ishlari nutqda

² Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг кognитив асослари. – Т.: «Наврўз», 2019. – 300 с.; Сафаров Ш.С. Метафора ҳодисаси талқинига янгича ёндашув имкониятлари // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – 2020. – № 1 (74). – 7–11 б.; Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2018. – № 2 (21). – С. 104–110; Галиева М.Р. Отражение мифолого-религиозного сознания в языковой картине мира: Автореф. дисс. ... док. филол. наук (DSc). – Фергана, 2019. – 78 с.; Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – 160 p.; Джусупов Н.М. Когнитивно-стилистические основы выдвижения в англоязычном художественном тексте: Дисс. ... док. филол. наук (DSc). – Ташкент, 2020. – 330 с.; Арустамян Я.Ю. Когнитивно-прагматические основания художественного перевода: Дисс. ... док. филол. наук (DSc). – Ташкент, 2022. – 250 с.

³ Кахарова И.С. Когнитивно-прагматическая интерпретация эмоционально-экспрессивных предложений в английском и узбекском языках (на примере произведений Сомерсета Моэма): Дисс. ... док. философ. (PhD) по филол. – Ташкент, 2019. – 136 с.; Рofиева Г.Ю. Особенности перевода концептуальных метафор с узбекского на французский (на материале произведений Эркина Азама): Дисс. ... док. философ. (PhD) по филол. – Ташкент, 2020. – 120 с.; Музафарова Л.У. Концептуализация структуры знаний в пространстве художественного интертекста (на материале произведений Дж.Д.Сэлинджера): Автореф. дисс. ... док. философ. (PhD) по филол. – Ташкент,

va matnda kognitiv strukturalar shakllanishi masalalari, kontseptosfera va alohida kontseptual birliklarning voqelanishiga hamda turli janrlardagi matnlar talqinining ayrim jihatlariga bag'ishlangan.

Tarjimashunoslikning nazariy va amaliy aspektlari N.A.Abrosimova K.A.Vorobyova, M.A. Panina, Ye.Yu. Popova, T.Yu. Chubaryan⁴ kabi olimlar isharida chuqur o'rganilgan. Kinoya, pretsedentli matnlar talqini va kognitiv tilshunoslik asoslari S.N. Balashov, O.S. Boyarskix, N.N. Goncharova, A.A.Gornostayeva, B.A. Gomleshko, Ye.V. Ivanova, Yu.A. Kiryuxin, T.A.Lavrinenko, N.G. Mixnovets, A.G. Minchenkov, A.A. Proskurina, Yu.Yu.Saksonova, K.M. Shilixina⁵ va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

J.Krushvitz, D.Vengaliene, T.Ya.Li, J.K.Kling⁶ va boshqalar ishlarida tadqiqot obyekti sifatida kinoya va badiiy matndagi komiklikka doir boshqa

2022. - 58 с.; Пулатова Д.Ф. Художественное своеобразие политических сатирических романов Кристофера Бакли: Автореф. дисс. ... док. филол. (PhD) по филол. - Ташкент, 2025. - 59 с.

⁴ Абросимова Н.А. Языковые особенности переводов комических текстов (на материале рассказов М. Твена, О. Генри и С. Ликока): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – 26 с.; Воробьева К.А. Лингвокультурологические и психолингвистические аспекты восприятия иронии в художественном произведении: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск: 2008. – 155 с.; Панина М.А. Комическое и языковое средство его выражения: Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. — Москва, 1996. - 20 с.; Попова Е.Ю. Прецедентные феномены в современном художественном дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2012. – 22 с.; Чубарян Т. Ю. Семантика и прагматика речевых жанров юмора: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1994. - 24 с.

⁵ Балашов С.Н. Когнитивная природа иронии: парадигма моделей в сопоставительном описании (на материале английских художественных произведений XX века и их русских переводов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2006. – 25 с.; Боярских О.С. Прецедентные феномены со сферой-источником «Литература» в дискурсе российских печатных СМИ: Дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Тагил, 2008. – 232 с.; Гончарова Н.Н. Когнитивные основания интерпретации иносказания на уровне дискурса (на материале англоязычных художественных текстов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2001. – 24 с.; Горностаева А.А. Ирония в английской и русской коммуникативных культурах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2013. – 22 с.; Гомлешко Б.А. Языковые средства выражения иронии в художественных текстах Джона Голсуорси: лингвопрагматический аспект (на материале языка романа «Сага о Форсайтах»): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2008. – 26 с.; Иванова Е. В. Когнитивный аспект перевода стилистической конвергенции: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2006. – 28 с.; Кирюхин Ю. А. Ирония как актуальная форма комического: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 25 с.; Лавриненко Т.А. Прецедентный мир «Великая Отечественная война» в русской лингвокультуре: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2007. – 198 с.; Михновец Н.Г. Прецедентные произведения и прецедентные темы, их место и роль в творчестве Ф.М. Достоевского: Автореф. дисс. ... доктора филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 45 с.; Минченков А.Г. Когнитивно-эвристическая модель перевода (на материале английского языка): Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – СПб, 2008. – 40 с.; Проскурина А.А. Прецедентные тексты в англоязычном юмористическом дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2004. – 203 с.; Саксонова Ю.Ю. Прецедентный интекст: проблема межъязыковой эквивалентности в художественном переводе (на материале английского, немецкого и русского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2001. – 133 с.; Шилихина К.М. Дискурсивная практика иронии: когнитивный, семантический и прагматический аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2014. – 50 с.

⁶ Kruschwitz J.A. Interludes and irony in the ancestral narrative: PhD thesis. University of Sheffield, 2014; Vengalienė D. Irony within the scope of conceptual blending in Lithuanian and American on-line news headlines: a comparative analysis: PhD thesis. Vilnius University, 2011; Lee T.Y. "Dramatic irony" in John's Gospel: re-examining the irony using ancient dramatic theory: PhD thesis. University of Aberdeen, 2019; Kling J.C. On knowingness: irony and queerness in the works of Byron, Heine, Fontane, and Wilde: PhD thesis. University of St Andrews, 2014.

shakllar o'rganilib, ushbu ishlarda kinoyali fikr-jumlalarning qo'llanish vaziyatlari tahlilga tortilgan. L.S.Visnom, H.Silva, E.P.Knudson, L.Grahamlarning⁷ ishlarida, M.M.Baxtin, R.Bart, Yu.Kristeva⁸ va boshqalar tomonidan shakllantirilgan intermatnlilikning umumiy nazariyasi doirasida pretsedentli matnlarning teran tahlili amalga oshirilgan. Biroq kinoyali fikr-jumlalarning badiiy matnda shakllantirilishi, ularning o'quvchi tomonidan anglashilishining kognitiv mexanizmlarini aniqlashga hamda bir muallif asarlari materiali tarjimasida ularni bera olishning samarali usullarini topishga qaratilgan kompleks tadqiqot o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining "Diskursiv faoliyatning kognitiv-pragmatik tahlili" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda kinoyaviy ifodaning kognitiv asoslarini nazariy jihatdan asoslash, uning shakllanishi va idrok etilish mexanizmlarini aniqlash hamda tarjimada uni samarali ifodalashning maqbul usullarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kinoyani stilistik va lingvokognitiv yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, uni komiklikning boshqa ko'rinishlaridan farqlash mezonlarini aniqlashtirish hamda badiiy matn makonida kinoyaviy ifodaning funksional ko'lamini belgilash;

kinoyaning asosiy turlari va uning ingliz tilidagi badiiy matnda, xususan O. Genri ijodiy uslubidagi verbal ifoda mexanizmlarini aniqlash va tizimlashtirish;

kinoyaviy ifoda paydo bo'lishiga asos bo'luvchi kognitiv mexanizmlarni, xususan konseptual to'qnashuv va kognitiv nomutanosiblik fenomenlarini o'rganish, ular orqali voqelikning stereotip idrokini buzish jarayonini tushuntirish;

kinoyani shakllantirishda pretsedent matnlarning rolini aniqlash, ularning turlarini tasniflash hamda ingliz adabiyotida kinoyaviy effekt yaratishda eng ko'p uchraydigan pretsedent manbalarni milliy-madaniy tafakkur xususiyatlarini inobatga olgan holda aniqlash;

kognitiv yondashuv asosida kinoyaviy ifodani boshqa til vositalari orqali tarjimada qayta yaratishning samarali strategiya va usullarini belgilash, bunda kinoyaning konseptual tuzilmasi va ma'no qatlamlarini saqlab qolish.

⁷ Wisnom L.S. Intertextuality in Babylonian narrative poetry: Anzu, Enuma Elish, and Erra and Ishum: PhD thesis. University of Oxford, 2014; Silva H.J.F. Yarns of Community: Intertextuality and Community in Éilís Ní Dhuibhne's The Shelter of Neighbours. PhD thesis. Universidade de Coimbra, 2023; Knudson E. P. Rereading (re)writing: exploring textual correspondences in and through Daniel 7 and 8: PhD thesis. University of St. Andrews, 2022; Graham L. Ministry through Musical Performance: Establishing Biblical, Historical, and Pedagogical (Educational) Precedent for the Christian Performing Artist: PhD thesis. Liberty University, 2018.

⁸ Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман / Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М.: Прогресс, 2000. – С. 427-457.; Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика: Пер. с фр. / Ролан Барт; Сост., общ. ред. и вступ. ст. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс: Универс, 1994. – 615 с; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советская Россия, 1979. - 363 с.

Tadqiqot obyekti sifatida amerikalik yozuvchi O. Genrining turli hajmdagi hikoyalarida uchraydigan kinoyaviy ifodalar hamda ularning turli davrlarda turli tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan rus tilidagi badiiy tarjimalari tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz tilidagi badiiy matnda kinoyaviy ifoda shakllanishining lingvokognitiv xususiyatlari hamda tarjima jarayonida uning konseptual-pragmatik qayta yaratilish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kinoyaning kognitiv, pragmatik va modal xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan germeneytik, induktiv-deduktiv, intertekstual, diskursiv hamda stilistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lingvokognitiv yondashuv asosida kinoyaning mohiyati inson tafakkuri, pragmatika va madaniyatning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi mental-lisoniy hodisa sifatida tizimli yoritilgan;

kinoyaviy ifoda hosil bo‘lishi kognitiv dissonans, *“aldamchi kutilma”* samarasi va konseptual to‘qnashuv kabi maxsus kognitiv mexanizmlarga tayanishi, ular esa yashirin ma’no va ko‘p qatlamli semantika hosil qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

tajnis, paradoks, antifrazis va gavdalantirish O. Genrining individual uslubida kinoyani ifodalovchi asosiy verbal vositalar sifatida aniqlanib, kinoyaning nafaqat estetik, balki muallif va obrazlarning voqelikka munosabatini aks ettiruvchi modal-baholovchi funksiyasi ham dalillangan;

tarjimada kinoyani yetkazishda eng samarali yo‘llar sifatida kognitiv jihatdan motivatsiyalangan transformatsiyalar: grammatik, leksik-semantik va pragmatik usullar (*konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, kalkalash va ekvivalent tarjima*) aniqlanib, ular muallif niyati va konseptual tuzilmani saqlab qolishda muhim vosita ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: ushbu dissertatsiya tadqiqot materiallaridan oliy o‘quv yurtlarining kognitiv lingvistika, stilistika, matnning lingvistik tahlili, tarjima nazariyasi va amaliyoti kabi fanlar doirasidagi o‘qitish amaliyotida foydalanish mumkin. Ishda taklif etilgan kognitiv kinoyani tarjima qilish usullarini turli janrlarga mansub matnlarning talqini samaradorligini oshirishda qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ikki tildagi madaniy an’analar va urf-odatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan kinoyaviy fikr-jumlalar tarjimasi va tahlili usullarining aniqligi, nazariy material ma’lumotlarining asl ilmiy manbalar bilan asoslanganligi hamda tadqiqot materiali matnlarning ishonchli manbalardan olinganligi, xulosalar mantiqan to‘g‘ri shakllantirilganligi, ish natijalari amaliyotga joriy etilganligining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati badiiy asar matnida kinoyaning lingvokognitiv aspektida tahlil qilish tamoyillarining ishlab chiqilganligi va kinoyaning ingliz tilidan rus tiliga tarjimalarining turli usullaridan foydalanilganlik: kognitiv tabiatli kinoyali fikr-jumlalar hosil bo‘lishida unikal hodisa sifatidagi kognitiv nomutanosiblikni yaratishga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va komik kelib chiqishli ifoda

vositalari tarjimasidagi qiyinchiliklarni aniqlash. Tadqiqot jarayonida chiqarilgan ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalar adabiyotshunoslik sohasida nasriy asarlarni o‘rganish, ayniqsa, komik kelib chiqishli ifoda vositalarini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ushbu ish natijalaridan bakalavriat va magistratura talabalariga ingliz tili stilistikasi, kognitiv lingvistika, Amerika adabiyoti tarixi fanlarini o‘qitishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqotdan olingan xulosalardan ma’ruza matnlarini tuzishda, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar tayyorlashda, dissertatsion va monografik tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amerikalik yozuvchi O. Genri hikoyalarida kinoyaning verbal shakllari va uni yuzaga keltiruvchi kognitiv mexanizmlarni tahlil qilish hamda ingliz tilidan rus tiliga kinoyaviy ifodalarni samarali tarjima qilishga oid tadqiqot natijalari amaliyotda quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanildi:

lingvokognitiv yondashuv asosida kinoyaning kognitiv, pragmatik va madaniy omillarning o‘zaro ta’sirida shakllanuvchi mental-lisoniy hodisa sifatida tizimli yoritilganligi haqidagi ilmiy xulosadan 2021–2023 yillarda Qarshi davlat universitetida amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language Competence at Karshi State University” nomli grant loyihasida qo‘llanildi (Qarshi davlat universiteti ma’lumotnomasi № 04/2283, 2025-yil 31-may). Mazkur yondashuvlar filologik tahlil metodikasini takomillashtirishga hamda tarjima va adabiyotshunoslik fanlari bo‘yicha o‘quv kurslariga kognitiv stilistika elementlarini integratsiya etishga xizmat qildi;

kinoyaviy ifoda kognitiv dissonans, “aldamchi kutilma” samarasi va konseptual to‘qnashuv kabi mexanizmlarga asoslanishi haqidagi ilmiy xulosadan 2025-yil may oyida efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” teleko‘rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlash jarayonida qo‘llanildi (Samarqand viloyat televideniyesi ma’lumotnomasi № 01-07/209, 2025-yil 11-iyun). Tadqiqot natijalaridan foydalanish natijasida teletomoshabinlar orasida badiiy tarjima sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va adabiyotdagi kinoyani idrok etishning kognitiv mexanizmlari to‘g‘risida xabardorlik oshirildi;

kinoyani idrok etishda mifologik, diniy va klassik adabiy manbalar kognitiv triggerlar sifatida muhim rol o‘ynashi haqidagi xulosa O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Madaniy-ma’rifiy muassasalar boshqarmasi tomonidan 2023–2024 yillarda amalga oshirilgan “Yurtimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish” nomli fundamental loyiha doirasida tatbiq etildi (Madaniyat vazirligi ma’lumotnomasi № 04-15-06-896, 2025-yil 23-iyun). Ushbu ilmiy asoslar millatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlash, o‘zbek xalqining til an‘analari va badiiy merosi o‘rtasidagi uyg‘unlikni rivojlantirishga xizmat qildi;

kinoyani tarjimada yetkazishda eng samarali usullar sifatida grammatik, leksik-semantik va pragmatik kognitiv transformatsiyalar (konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, kalkalash, ekvivalent tarjima) qo‘llanilishi haqidagi ilmiy natijalar “Paratranslator-parallel korpus asosida kontekstual tarjima lug‘atini

yaratish” nomli innovatsion loyiha doirasida qo‘llanildi. Mazkur loyiha 2024–2025 yillarda O‘zbekiston Milliy universitetida Jahon banki ko‘magida amalga oshirilgan (Milliy universitet ma‘lumotnomasi № 04/U-6296, 2025-yil 19-may). Natijada kinoyaning murakkab kognitiv hodisa sifatidagi funksional va semantik xususiyatlari chuqur o‘rganildi hamda kontekstual tarjimani raqamli modellashtirish imkoniyatlari kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta va xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy hajmi 161 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, muammoning o‘rganilish darajasi, tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy va yurtimiz adabiyotlari sharhi amalga oshirilgan, tadqiqotda foydalanilgan metodlar ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kinoyani o‘rganishning lingvistik va kognitiv aspektlari”** nomli birinchi bobida kinoya antik davrlardan ma‘lum komiklikning vositalaridan biri sifatida olib qaralganligi, komik xususiyatga ega boshqa stilistik vositalar bilan o‘xshashlik va farqlanish masalalari tadqiq qilingan, kinoyani ifodalashning har xil turlari va vositalari tahlil qilingan, kinoyani kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish tamoyillari bayon etilgan, asarlari kinoyali fikr-jummalarga boy O. Genrining individual ijodiy uslubi dalillangan.

Kinoya tushunchasidan ilk bor miloddan oldingi VI-V asrlarda, faylasuflar insonning o‘ziga, uning botiniy dunyosi muammolariga va turmush tarzining turli shakllariga ko‘proq e‘tibor bera boshlagan davrdan foydalanilgan. Avval boshida bekorchi gaplarni, masxara va aldovni anglatgan kinoya (kinoya) vaqt o‘tishi bilan ilmiy, falsafiy va ritorik tafakkur unsuriga aylandi. I.R.Galperinning fikricha, “kinoya bu – stilistik usul bo‘lib, uning vositasida biror bir so‘zda ikki turdagi

leksik ma'no: predmet-mantiqiy va kontekstual, ya'ni qarshi qo'yish/zidlik munosabatiga asoslangan ma'nolar o'zaro ta'sirga kirishadi".⁹

O'quvchi kinoyaning mohiyatini kontekst yoki muallif tomonidan yaratilgan vaziyat orqali anglaydi. Uslubning buzilishi, takrorlar, matndagi bevosita ishoralar ("u istehzoli jilmaydi"), qahramonning mimikasi ("ko'tarilgan qoshlar, iljayish") badiiy asarda kinoyaning boshqa belgilari hisoblanadi.

Komiklikning boshqa kategoriyalari bilan bir qatorda kinoya ham o'z belgi-xususiyatlariga ega. Kinoyaning shunday mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish ushbu hodisani komiklikning yondosh turlari bo'lgan yumor, satira, grotesk, sarkazm, parodiya va boshqalardan farqlash uchun zarurdir.

Yumordan farqli o'laroq, satira o'zgacha maqsad va emotsional bo'yoqdorlikka ega. Yumorga nisbatan tajovuzkorroq, chunki so'zlovchining maqsadi – axborotni qabul qiluvchini ranjitish va uning ustidan zaharxandali kulmoqdir. Satira bilan yumor orasidagi farqqa urg'u berib, Yu.B.Borev shunday yozadi: "yumor – o'z obyektini ma'qullovchi o'ziga xos emotsional tanqid, satira esa – o'z obyektini inkor etuvchi tanqid"¹⁰.

Kontrast birikuv va qarama-qarshiliklar o'yini kinoya va grotesk uchun umumiy asos hisoblanadi. Grotesk hodisaning o'z zidiga o'tishini ko'rsatadi. Farq yana shundan iboratki, kayfiyatning artistik holati kinoyada birinchi o'rinda yotadi, ammo groteskda fantastik shakl ustuvorlik qiladi.¹¹

Komiklik ifodasining yana bir usuli sarkazm bo'lib, uni nishonga aniq tegishi va so'zlovchining talaffuzda namoyon bo'ladigan munosabati sababli achchiq kinoya yoki istehzo sifatida olib qaraladi hamda u zaharxandani, nafaqat ko'zda tutilgan va ifodalanayotgan ma'nolarning kuchaytirilgan kontrastiga, balki ko'zda tutilgan ma'noning o'sha zahoti oydinlashuviga ham asoslanadigan kinoyaning eng yuqori darajasini bildiradi: "Bo'rining baytalga rahmi kelibdi, otdan dumi-yu yoli qolibdi".

Kinoya soxta (ayyor)lik sifatida kelganida parodiyaga o'xshaydi. Parodiyada muallif ma'lum bir taniqli tarixiy shaxs yoki namunaga murojaat qiladi, o'quvchi esa kuchaytirilgan obyektida prototipni tanib olishi kerak. Parodiyada obyekt uchun illyuzor o'xshashlik ortida ajoyib farq ochiladi, bu ilk qirralar saqlab qolinganda holda olamning o'zga obrazini namoyish etadigan mahorat va topqirlik bilan amalga oshirilgan orttirmadir.

Shunday qilib, kinoya va komiklikning boshqa turlari ham umumiy, u yoki bu adabiy usul uchun o'ziga xos bo'lgan farqlovchi qirralariga ega ekanligi xususida xulosa chiqarish mumkin.

Kinoya turli vazifalarni bajaradi va shuning asosida kinoyaning uch turini alohida ajratish mumkin: verbal, vaziyatli va dramatik. Tadqiqotimizda kinoya turlarini uning vazifalari, ayniqsa, kinoyaning verbal ifoda shakli nuqtayi nazaridan o'rganamiz. Kinoyani ifodalashning eng keng tarqalgan lisoniy vositalaridan biri

⁹ Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. - М.: Изд-во лит. на иностр. яз., 1958. – С. 133.

¹⁰ Боров Ю.Б. О комическом Текст. – М.: Искусство, 1977. – С. 98.

¹¹ Шестаков В.П. Эстетические категории. Опыт систематического и исторического исследования. – М.: Искусство, 1983. – 356 с.

soʻz oʻyini (kalambur)dir. Kalambur (frans.calembour) – soʻz oʻyini, ibora, maʼnosi har xil soʻz va soʻz birikmalarining tovushli oʻxshashligini komik oʻyinga aylantiriladigan hazil. V.V.Dudkinning taʼrificha, funksional jihatdan bu stilistik usul bir qutbda kinoyaga qoʻshilib ketsa, boshqasida – paradoksga oʻtadi”.¹²

Soʻz oʻyini hisoblangan lisoniy paradokslar bironing ustidan kulish uchun, kinoyali taʼsirga erishish uchun eng keng tarqalgan lisoniy usullardan biridir. S.I.Ojegov tahriri ostida chiqqan lugʻatga koʻra, paradoks bu – “umumqabul qilingan fikrlar, ilmiy xulosalarga zid gʻalati fikr, mulohaza, shuningdek, sogʻlom aqlga zid (baʼzan faqat birinchi qarashda) fikr”.¹³

Kinoyali maʼnoni jonlantirishdek lingvistik usul bilan ham berish mumkin: masalan, qahramonning bilimsizligi va keksa yoshli ekanligiga urgʻu berib, “*Her father wouldn't even know what an olive was if it walked up to him and introduced itself*”.¹⁴

Kinoyaning toʻgʻri tushunilishiga bir qator omillar taʼsir qiladi. Bularga muallif va oʻquvchi (qabul qiluvchi)ning oʻzaro munosabatlari, ularning madaniyat darajalari, ekstralingvistik vaziyat va hokazolar kiradi.

Xullas, kinoyani voqelantirishning turli lingvistik vositalari mavjud boʻlib, ularning toʻgʻri talqini badiiy asar tahlilida muhim rol oʻynaydi.

Zamonaviy tilshunoslik uchun kognitivizm nuqtayi nazaridan til va nutqning turli hodisalariga murojaat qilish xosdir. Bu toʻliq maʼnoda nutqiy iboralarga ham daxldor boʻlib, yangi ilmiy yoʻnalish – kognitiv stilistikaning shakllanishiga olib keldi va uning doirasida kinoyali iboralarning kognitiv asoslari tadqiq etiladi. Bunda tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, hozirgi kunga qadar kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu yoʻnalish mantiqiy va izchil tavsiflangan emas.¹⁵

Kinoyali fikr-jumla voqelangan badiiy matn kinoyaviy maʼnoning kognitiv qurilishining umumqabul qilingan tizimi sifatida tasavvur qilinadi va bunda kontseptual birlik uch sathda quriladi: muallif, matn va oʻquvchi kognitiv maydonida. Matn muallifi kinoyadan atrof muhitni oʻz idrokiga koʻra foydalanadi, matn maydonida kognitiv ziddiyat lisoniy sathda verballashadi, oʻquvchi maydonida esa verbal ziddiyat kognitiv hosil boʻlgan kinoyaviy maʼnoni qayta tiklaydi. Shu tarzda matn maydonida birlashtirilgan ikki kognitiv makon kinoyali diskurs sharoitida ishtirok etadi.

Kinoyani tushunish muloqotga qodirlikning yuqori darajasi, xabar joʻnatuvchi va qabul qiluvchining kinoya bilan oʻzaro munosabatda dunyoni idrok

¹² Дудкин В.В. Каламбуры в жизни и в литературе // Достоевский: сочинения, письма, документы : словарь-справочник / РАН Ин-т рус. лит. [сост. Г.К. Щенников, Б.Н. Тихомиров]. – СПб: Пушкинский Дом, 2008. – С. 217-218.

¹³ Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1990. – С. 490.

¹⁴ Цит. по Заболотнева О.Л. Лингвокогнитивные средства выражения иронии в художественном дискурсе // Вестник ЧелГУ. Челябинск: Филология. Искусствоведение. Вып. 82. – 2013. – № 24 (315). – С. 86.

¹⁵ Мухина Ю.Н. Моделирование когнитивных контекстов вербальной иронии (на материале русского и английского языков) // Известия Саратовского ун-та. Т. 12. Сер. Филология. Журналистика, вып. 4. – С. 21–25.

etish bo'yicha umumiy bilimlari hamda qabul qiluvchining kinoya makonida muloqotga tayyorligi va boshqa bir qator omillarga bog'liq.¹⁶

Biroq badiiy matnda kinoya anchayin murakkab shakllarda namoyon bo'ladi. So'zlar ko'p ma'noliligi (polisemiya) va ekspressivlik ifodasi kinoyaning lingvokognitiv imkoniyatlari asosini tashkil etadi, ya'ni ushbu jarayonlar so'zlovchi(yozuvchi)ni "matn ma'nosini kuchaytirishga" undaydi. Bu qoidaga muvofiq, chunki ko'p ma'noli so'zlar bo'lmasa, kinoyani tasavvur qilish imkonsiz¹⁷.

Stilistik usullarning tahlili muammosi kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yangicha talqin kasb etdi. Iboralar o'zlarida muayyan bilimlar konseptual strukturalarini mujassam etgan kognitiv mexanizmlar sifatida tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotimizda kognitiv nuqtayi nazardan kinoyali fikr-jumla kognitiv nomutanosiblikka olib keluvchi ikki konseptual birlikning to'qnashuviga tayanishidan kelib chiqib ish tutamiz.

Muallifning individual uslubiga ma'lum leksik birliklarning, sintaktik qurilmalarning yoki iboralarning qo'llanilishi xos bo'lishi mumkin. V.V.Vinogradovning fikricha, "individual uslub bu – murakkab, lekin u yoki bu muallifning asarlariga xos bo'lgan aniq stilistik vositalarning struktur va ichki o'zaro bog'liq tizimidir"¹⁸.

Amerikalik yozuvchi O.Genri (haqiqiy ismi Uilyam Sidney Porter) XX asrning 50-yillaridan boshlab o'quvchilar e'tiboriga tushadi. O.Genri shu janr asoschisi bo'lmasa-da, qisqa, aksar kinoyali hikoya ustasi sifatida shuhrat qozondi. Ushbu istiloh ilk bor XIX asrning birinchi yarmida Genri Jeyms tomonidan qo'llanilgan bo'lib, "short story" ("qisqa hikoya") degan nom oldi.

O.Genri asarlarida komik obraz yaratishning samarali vositasi bo'lgan kinoya adibning asarlari matnida rang-barang vositalar bilan ifodalanadi, ular jumlasiga metafora, jonlantirish, giperbola va boshqa stilistik vositalar kiradi.

Muallif kinoyasi deganda muallif yoki roviyning kinoyali tavsifi, sharhlari va remarkasi tushuniladi. Shu o'rinda M.P.Brandesga qo'shilgan holda biz "muallif" tushunchasiga o'zaro uyg'un bog'langan uch ma'noni kiritamiz: "asarining yaratuvchisi sifatidagi muallif; asarda uning boshqa personajlari bilan bir qatorda keladigan subyekt sifatidagi muallif; yozuvchining badiiy shaxsi sifatidagi muallif".¹⁹ O.Genri ko'p hollarda muallif kinoyasidan qahramonlarni, ularning qilmishlarini tavsiflashda va vaziyatni baholashda foydalanadi. Misol uchun, "The Cop and the Anthem" («Фараон и хорал») hikoyasida yozuvchi o'zining bo'lg'usi qishlovi haqida bosh qotirayotgan bosh qahramon, uysiz daydi Sopining orzularini kinoyali tasvirlaydi.

Balandparvozlik xususiyatiga ega stereotiplar Qadimgi Misr hukmdorlari – fir'avnlr va shimol shamolining timsoli bo'lgan Borey mifologik obrazi

¹⁶ Захарова М.В. Психолингвистика. Факторы формирования иронического контекста. - М.: Изд-во МГПУ, 2020. – С. 112-113.

¹⁷ Самыгина Л.В. Изучение иронии в сфере лингвистики // А-фактор: научные исследования и разработки (гуманитарные науки). – 2017, №3 – Раздел: Филологические науки. – С. 1 – 11.

¹⁸ Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – М.: Худ. лит-ра, 1961. – С. 60.

¹⁹ Брандес М.П. Стилистика немецкого языка. – Москва: Высш. шк., 1983. – С. 48.

yordamida yaratiladi. Bunday stereotiplar yozuvchi daydi Sopining salbiy obrazi bilan qarshilantirishda foydalanadigan leksik birliklar tanlovi tufayli ijobiy hisoblanadi. Ikki stereotiplarning to‘qnashuvi kognitiv nomutanosiblikka olib keladi va unda oddiy daydi o‘ziga to‘q amerikalikning imkoni yetadigan narsalarni orzu qiladi : ... *no considerations of Mediterranean cruises, of soporific Southern skies or drifting in the Vesuvian Bay*²⁰ (ни о небе юга, ни о поездке на яхте по Средиземному морю со стоянкой в Неаполитанском заливе). Muallif kinoyasi shundan iboratki, leksik vositalar yordamida badavlat kishi va o‘z maqomi va ahvolidan kelib chiqib, u hech qachon duch kelmaydigan narsalar haqida o‘ylashga ham jur‘at qilolmaydigan oddiy daydining istaklari orasidagi nomutanosiblik yaratiladi.

“Let me feel your pulse” (“«Дайте пощупать ваш пульс»”) nomli hikoyada kinoya shifokor bilan bemor suhbatida namoyon bo‘ladi:

“You must follow this diet strictly,” said the doctors.

*“I’d follow it a mile if I could get one-tenth of what’s on it,” I answered.*²¹

Ushbu parchada *follow* (*rioya qilmoq*) fe’li birinchi holatda “придерживаться” ma’nosida, ikkinchida esa “идти” ma’nosida qo‘llangan. Kinoyaning mohiyati so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari qarshilantirilishida emas, balki ularning o‘zaro munosabatidadir. Bemor o‘z jumlasida shifokor sog‘lom parhez uchun unga maslahat bergan ajabtovur mahsulotlarni qo‘lga kiritish imkoniyatiga o‘z tanqidiy munosabatini kinoyaviy izhor etadi²².

Shu tarzda, O.Genrining bosh qahramonlar obrazlarini ochib berishdagi o‘ziga xos qobiliyatlarini hisobga olgan holda muallif o‘z badiiy niyatlariga amal qilib, kinoyaning turli variantlaridan foydalanganligi xususida xulosa chiqarish mumkin. Kinoya tahlilida yuboruvchi va qabul qiluvchi onglari orasidagi munosabatni hamda kinoyali fikr-jumlaning predmetini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlamog‘ lozim.

“O.Genri hikoyalarida kinoyaning lingvokognitiv aspektlari” deb nomlangan ikkinchi bob badiiy matnda emotsionallik va ekspressivlikni ifodalash vositasi sifatida kinoyani o‘rganish, kinoya vositasida muallif modalligi mohiyatini ochib berish, kinoyani kognitiv talqinida pretsedentli matn o‘rnini va kognitiv nuqtayi nazardan kinoyani idrok etishda aldangan umid holatining rolini aniqlashga bag‘ishlangan.

Lisoniy birliklarning stilistik bo‘yoqdorligi so‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalaydi. D.E.Rozentalning fikricha, tasviriylik muallif bahosining aniqlanishiga ko‘maklashuvchi emotsional-ekspressivli bo‘yoqdorlik vositasida kengayadi, fikr ifodasi hislar ifodasi bilan birga keladi.²³ Bunda tilning turli sathlari birliklariga har xil emotsional bo‘yoqdorlik berishda kontekst muhim rol o‘ynaydi.

²⁰ O. Henry. The Cop and the Anthem. <http://www.blackmask.com>.

²¹ O. Henry. Let me feel your pulse. <https://americanliterature.com/author/o-henry/short-story/let-me-feel-your-pulse>.

²² Воробьева К.А. Лингвокультурологические и психолингвистические аспекты восприятия иронии в художественном произведении: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск: 2008. – С. 12.

²³ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя. 3-е изд., испр. и доп. – М.: Просвещение, 1985. – С. 101.

Til neytral birliklarining emotsional bo‘yoqdor sinonimlaridan uslubiy belgilangan birliklar sifatida foydalaniladi. Neytral so‘z kontekstda qo‘shimcha ma’no oladi va bunda muallif o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi.

Muallif kinoyasiga misol sifatida O.Genrining “Babes in the jungle” (“Младенцы в джунглях”) sarlavhali hikoyasini keltiramiz. Muallif hikoya sarlavhasida Iso Masihni bildirish uchun foydalaniladigan injiliy “the babe in the manger” (младенец в яслях) iborasini yodga soladigan so‘z o‘yini qo‘llaydi va “ясли” so‘zini “джунгли”ga alishtiradi. Ushbu holatda go‘daklarni ikki yoshi katta firibgarga, changalzorni esa Nyu-York shahriga mengzaydi va shu bilan kognitiv nomutanosiblik yaratadi. Injildan olingan “bolalar kabi bo‘linglar” iborasida go‘daklar pok, nafis va begunoh mohiyat tushuniladi. Muallif bahosi ushbu asar sarlavhasida namoyon etilgan bo‘lib, O.Genrining shaharga uning aholisini chuv tushirish uchun kelgan, ammo Nyu-Yorkning yanada ustamon firibgarlari tomonidan aldangan hikoya bosh qahramonlariga kinoyali munosabati ifodalanadi. Bu novellada *babes* (младенцы) neytral so‘zidan muallif tomonidan hikoyaning personajlarini aldash juda oson bo‘lgan mutlaqo sodda kishilar bilan qiyoslab, ularga hazilomuz kinoyali munosabatni ko‘rsatish uchun foydalanilgan.


“...*listening to his groans as if to the sweetest music*”²⁴ iborasida muallif baxtli yoki baxsiz hodisadan zavqlanish uchun voqea sodir bo‘lgan yerga yelday uchib boradigan nyu-yorklik ermaktalablarni tasvirlaydi. Bunday tasvir natijasida kinoyaviy obraz *groans (ingrashlar) sweetest music (xush yoquvchi musiqa)* kabi turli plandagi tushunchalarni qiyoslashda hosil bo‘ladi. Ushbu kontekst tarjimasida muallif hamdardlik va g‘amxo‘rlik bildirish o‘rniga ingrashlar “musiqasi”ning bilimdoni bo‘lgan kimsaga jabr ko‘rgan insonning ingrashlarini “xush yoquvchi musiqa”ga tenglashtiradi.

Muallif modalligi badiiy matnning muhim vositasi bo‘lib, u “muallifning xabarga munosabatini, uning qarashlarini, o‘quvchiga uzatish uchun shakllantirilgan qadriyatlar tizimini matndagi ifodasi”dir.²⁵

Kinoya subyektiv modallik kategoriyasi bilan o‘zaro bog‘liq, chunki shunday stilistik usul vositasida muallif atrofdagi voqelikka o‘z munosabatini bilvosita ifodalaydi. O‘quvchi tomonidan butun asar matni strukturasi tahliliga asoslangan muallif kinoyasini tushunish ko‘p qirrali kognitiv jarayon bo‘lib, unda matn makonida birlashgan muallif va o‘quvchi kognitiv maydonlari ishtirok etadi.

²⁴ O. Henry Selected Stories / O.Henry.– Moscow: Progress Publishers, 1977.– P. 51.

²⁵ Валгина Н.С. Теория текста. - М.: Логос, 2003.– С. 97.



1-rasm. O'quvchi tomonidan muallif kinoyasini tushunishning kognitiv jarayoni


«*And the old man was trying to look like he wouldn't have murdered the first organ-grinder he heard play Mendelssohn's wedding-march...*» [O. Henry, 39]²⁶; (а старик притворялся, что у него нет особого желания задушить первого шарманщика, которого он поймает за исполнением мендельсоновского «Свадебного марша») [O. Genri, 273]²⁷ kinoyali jumlasida yozuvchi bosh qahramonning umuman uylanish jarayoniga, binobarin o'z rafiqa-siga ham nafrati kuchini ko'rsatib beradi. Subyektivli-baholashga oid modallik roviyning aql-u zakovatdan mahrum rafiqa obrazini tasvirlash maqsadida ko'ppak obrazida ikki qarama-qarshi tushunchani tenglashtirgan kinoyali fikr-jumladan foydalangan kontekstda yaqqol ifodalangan. Bir tomondan bu – uning rafiqasi nutqi uchun xos bo'lgan maishiy leksika, boshqa tomondan esa ikki qarama-qarshi yuksak tushunchalar (operetta librettosi va Epiktet aforizmlari) qiyosidir: «*You don't have to sit on her lap and listen to talk that would make the book of a musical comedy sound like the maxims of Epictetus.*» [O. Henry, 39] ((Тебе не приходится сидеть у нее на коленях и выслушивать разговор, по сравнению с которым опереточное либретто покажется равным по мудрости афоризмам Эпиктета.) [O. Genri, 273]. Shunday qilib, yozuvchi mutlaqo zid tushunchalarni qiyoslab, o'z qahramoni fikriga kinoyaviy bo'yoqdorlik berarkan, kognitiv nomutanosiblikni yaratadi.

Har qanday badiiy matn intermatnlilik xususiyatiga ega, ya'ni yaratilish zamoniga ko'ra o'zidan oldingi (pretsedentli) matnlar bilan ma'lum darajada bog'liqdir. Ko'plab olimlar, aniqroq aytadigan bo'lsak, Yu.A.Blinova, D.B.Gudkov, V.V.Krasnix, Ye.A.Naximova, T.A.Lavrinenko va G.G.Slishkin kabilar intermatnlilik nazariyasiga o'z hissasini qo'shishdi. Bu nazariya doirasida

²⁶ Bu erda va quyida nashrdan iqtiboslar keltirilgan: O. Henry 100 Selected stories. Wordsworth Editions Limited. K.: Wordsworth Editions Ltd, 1995. – 735 p.

²⁷ Bu erda va quyida nashrdan iqtiboslar keltirilgan: O. Генри Собрание сочинений в 5 томах, Т. 1: Повесть Короли и капуста; Сборники рассказов Четыре миллиона, Горящий светильник. – М: Литература; Престиж книга; РИПОЛ классик, 2006. – 544 с.

“pretsedentli nom”, “pretsedent fikr-jumla”, “pretsedentli matn”, “pretsedentli onim”, “pretsedentli kontsept” va “pretsedentli olam” singari ayrim terminlarni tushunish o‘ta muhimdir.



2-rasm. Pretsedentlik nazariyasining kognitiv terminlari

G.G.Slishkinning ta’rifiga ko‘ra, pretsedentli hodisalar konseptlari bir martalik pretsedentli hodisalar yoki pretsedentli olamlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Napoleon yoki Yuliy Sezar shaxsi, Vaterloodagi jang, “billur boshmoqcha” kabi predmetlar bir martalik pretsedentli hodisalarga kiradi. Badiiy asar matni bilan tanishishda madaniyat vakillari ongida pretsedentli matnlarning metakontseptlarini hosil qiluvchi pretsedentli olamlar muallif tasavvurining natijasi bo‘lishi mumkin. Tarixiy davrlarning kontseptlari tarixiy o‘tmishni, masalan, “natsistlik Germaniyasi”, “XVI asr Angliyasi” va boshqalarni qayta tiklashning mahsulidir²⁸.

Yu.N.Karaulov pretsedentli matn tushunchasini qo‘llanuvga kiritdi va ular “u yoki bu shaxs uchun bilishga oid va emotsional munosabatlarda ahamiyatli, o‘ta shaxsiy xususiyatga ega, ya’ni mazkur shaxsning atrofidagi kishilarga, undan oldin yashagan va uning zamondoshlariga ham yaxshi tanish va nihoyat, ushbu shaxs diskursida ko‘p bora murojaat takrorlanadigan matnlardir”²⁹.

“The ethics of pig” (“Поросячья этика”) novellasida O.Genri diniy xususiyatli pretsedentli ifodalarga murojaat qiladi: *«I found a village that seemed to show the right kind of a layout. The inhabitants hadn't found that Adam had been dispossessed, and were going right along naming the animals and killing snakes just as if they were in the Garden of Eden.»* [O. Henry, 253].

Pretsedentli nom sifatida muallif Odam (Adam)dan foydalanadi va shu bilan kognitiv nomutanosiblik yaratadi, chunki Eski Ahddan olingan personaj stereotipiga roviyning sodda va anoyiliklariga shama qilib, shaharcha aholisini kinoyali ta’riflagan vaziyatga nisbatan putur yetadi. Mahalliy aholi turmush sharoitini “jannat bog‘i” bilan taqqoslab (Garden of Eden), O.Genri taqvodor kishilarning o‘limdan keyingi abadiy istiqomat manzili diniy kontseptini oddiy foniylar zavqu shavqi bilan to‘qnashtiradi, shu tarzda yuksak stereotipni foniylar dunyo ne’matlariga nisbatan qo‘llanganda komik vaziyat yuzaga keladi.

²⁸ Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. – Волгоград: Перемена, 2004. – С. 23-27.

²⁹ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. - М: Изд-во ЛКИ, 1987. – С. 216.

XVII asrdan boshlab, T.Gobbs, I.Kant, T.Lippsi va boshqa ko‘plab faylasuf hamda ruhshunoslar keyinchalik “aldangan umid” nazariyasining vujudga kelishiga turtki bo‘lgan komiklik muammosi bilan shug‘ullanishgan. Kontekst qabul qiluvchida avvaldan belgilangan stereotip o‘quvchi idrokini ma’lum yakunga tayyorlashi, lekin matnda kutilmaganda kontekstning oldindan bashorat qilinayotgan ma’nosiga qarshi ma’no voqelanishidan iborat aldangan umid vaziyati g‘oyasining shakllanishiga ta’sir qiladi. Bunday oldindan anglashilgan va oldindan aytib bo‘lmas kabi psixolingvistik hodisalar “aldangan umid”³⁰ vaziyatining asosini tashkil etadi.

“Aldangan umid” hodisasi muloqot nazariyasi doirasida chuqur tadqiq etilmoqda va unga ko‘ra nutqiy muloqotning qoniqarli borishida suhbatdoshlar qulay muloqot hamkorligini ta’minlash maqsadida o‘z xatti-harakatlarini tahrirlab borishadi, aksincha bo‘lganida suhbatda keskin susayish yuz beradi va muloqot ishtirokchilari omadsiz nutqiy holatning asl sababini bilmay vaziyatni o‘zlaricha tushunishadi. Kinoyali fikr-jumla ham ko‘p hollarda shu holatga tayanib quriladi. Aldangan umid holatini bir gap doirasida qo‘llashga kinoyani voqelantirish uchun zevgmadan³¹ foydalanish yaqqol misol bo‘la oladi, chunki ushbu samaraga erishish uchun matn unsurlarini past va yuqori darajada oldindan anglashilish chizig‘iga muvofiq ma’lum tartibda joylashtirish lozim. “The Rathskeller and the Rose” (“Порребок и роза”) novellasidan misol keltiramiz:

“At the age of eighteen she had acquired the name of “Carrington” and a position in the chorus of a metropolitan burlesque company” [O. Henry, 286].

